

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblash boʻyicha uslubiy nizom

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblash boʻyicha uslubiy nizom (keyingi oʻrinlarda – Uslubiy nizom) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-114-son qarori ijrosini taʼminlash maqsadida, shuningdek, “Statistik maʼlumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keyingi oʻrinlarda – GSBPM)) va “Statistik maʼlumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi oʻrinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Uslubiy nizom qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari narxlari kuzatuvini oʻtkazish hamda narx indekslarini hisoblash maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, Oʻzbekiston Respublikasining meʼyoriy-huquqiy hujjatlaridan, respublikada qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi faoliyatini amalga oshirishning oʻziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan “Ishlab chiqaruvchilarning narxlari indeksi boʻyicha qoʻllanma: nazariya va amaliyot” (BMT YEIK, XVF, XMT, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Butunjahon banki) tavsiyalaridan foydalanilgan.

Ushbu uslubiy nizom qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari narxlari boʻyicha statistika kuzatuvlarini tashkil etish, oʻrtacha narxlar boʻyicha ishonchli statistik maʼlumotlarni shakllantirish va narxlar indeksini hisoblash maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun moʻljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tayanch korxonalar narxlarining statistik kuzatuvi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari narxlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni olish hamda narx indekslarini hisoblash maqsadida tashkil etilgan boʻlib, keyinchalik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi indeksini hisoblashda, milliy hisoblar koʻrsatkichlari deflyatori sifatida, asosiy fondlarni qayta baholash bilan bogʻliq koeffitsiyentlarni aniqlash maqsadida foydalaniladi.

2. Kuzatuvga “Oʻzstandart” agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268-sonli qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT, 2-tahrir) muvofiq asosiy iqtisodiy faoliyat turlari A – “Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi” seksiyasiga taalluqli boʻlgan tayanch obyektlar qamrab olinadi.

3. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llanilgan:

tayanch (bazaviy) narx – o'tgan yilning dekabridagi narx;

tanlov (namuna tanlov) – cheklangan miqdordagi kuzatuvlar to'plami hisoblanib, ular taqqoslanuvchi (tovar) bo'lishi kerak, umumiy xususiyatlari va nisbatlarini to'liq va yetarli darajada aks ettirishi kerak (barcha kuzatuvlarning umumiyliigi). Statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda foydalaniladigan tasdiqlangan tasniflagichlar, nomenklaturalar va ma'lumotnomalardan olingan alohida elementlarni ifodalaydi;

tovar turi – bu, aniq sifat belgilari va xususiyatlariga (nav, sinf, toifa, yosh va h.k.) hamda boshqa belgilarga (masalan, sotish shartlari) ega, namuna tovar hisoblangan tovarning aniqlashtirilgan minimal birligi;

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari – qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni turli sotish yo'llari orqali sotiladigan narxi.

bazaviy davr – tanlanma narxlar statistika kuzatuv uchun, realizatsiya qilingan mahsulotlarning hajmi qiymat ko'rinishida hisoblangan tayanch obyektlar va namuna tovarlarni tanlab olish uchun foydalaniladigan davr;

tayanch obyekt (korxona) – narxlarni ro'yxatga olish uchun kuzatuv tanlanmasiga kiritilgan obyekt;

vakil tovar (xizmat) – tovar (xizmat)larning sifati va asosiy iste'mol xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmaydigan darajada bir-biridan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra unchalik katta bo'lmagan holda farqlanadigan, o'zining iste'mol maqsadlari bo'yicha bir xil bo'lgan, tovar (xizmat)lar guruhidagi muayyan turdagi tovar (xizmat)larning to'plami;

salmoq vazn – umumiy narx indeksleri doirasidagi alohida elementlarning (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bo'limlar, guruhlar, sinflar, kichik sinflar va tovar (xizmat)lar) nisbiy ahamiyat o'lchovi.

individual narx indeksi – aniq bir turdagi namuna tovarning narxlar darajasi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkich;

umumlashgan (yig'ma) narx indeksi – umumiy o'rganilayotgan ma'lum bir guruh, kichik guruh yoki butun bir jarayon bo'yicha narxlar darajasining o'zgarishini tavsiflovchi va individual narx indeksleri asosida shakllanadigan ko'rsatkich.

umumlashtirish (agregatlash) – past darajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning keyingi barcha darajalardagi kattaroq to'plamlarga to'plash;

Ushbu Uslubiy nizomda keltirilgan atamalar, faqat statistika organlari tomonidan statistik maqsadlarda qo'llaniladi.

4. QXNI hisoblashning ishonchliligi va xolisililigi quyidagi shartlarga rioya etilgan holda ta'minlanadi:

- a) narxlar indeksini shakllantirish uchun tanlab olingan vakil-tovarlarning namunaliligi;
- b) tayanch obyektlar ro'yxatining doimiy ravishda yangilanib turilishi;
- d) narx ma'lumotlarining sifatini ta'minlanishi;
- e) o'lchov bazasini shakllantirishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tuzilmasidan foydalanish.

2-bob. Tadqiqot vositalari

5. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning narxlarini ro'yxatga olish 12 narx "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to'g'risida savolnoma" va 12 narx (qx) "Ulgurji bozorlardagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini ro'yxatga olish so'rovnomasi" statistik kuzatuv shakllari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur shakllar GSIMga muvofiq, Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

6. Zarur hollarda ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqa hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. QXNI shakllantirishning asosiy bosqichlari

7. GSBPMga muvofiq, QXNini bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. QXNini shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

- a) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan tayanch obyektlar va vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

- b) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari)

- c) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari)

g) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va QXNI shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

1-§. Obyektlar tanlanmasini shakllantirish

9. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxлари kuzatuvı tayanch obyektlarning tanlanma to'plami bo'yicha amalga oshiriladi.

Tayanch obyektlar tanlanmasini shakllantirish Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 3- ilovada keltirilgan tartıbda amalga oshiriladi.

10. Tayanch obyektlarni tanlashda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasining qiymat ko'rinishidagi hajmlari to'g'risidagi birlamchi statistik ma'lumotlar tahliliga asoslangan kuzatuvning tanlanma usulidan foydalaniladi, shu bilan birga, tanlanmaga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining savdosi bilan muntazam ravishda shug'ullanuvchi ulgurji bozorlar qamrab olinadi.

11. Tayanch obyektlarning tanlovi o'rganilayotgan to'plamning eng muhim birliklarini kuzatuvga tanlab olish orqali asosiy massiv usulidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

12. Tanlab olingan tayanch obyektlar kuzatish uchun belgilangan tovarlarning asosiy guruhlari, sinflari, turlarining maksimal darajada qamrovini ta'minlasa, tanlanmaning eng maqbul hajmiga erishiladi.

13. Tayanch obyektlarni tanlab olishda quyidagi talablar hisobga olinadi:

keng qamrovlilik: barcha turdagi va turli tashkiliy huquqiy shaklidagi obyektlar qamrovi;

geografik vakillilik: mintaqaning turli hududlarida joylashgan tayanch obyektlarning reprezentativligi;

tipiklik: iqtisodiy faoliyatning ushbu turi uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining amaldagi teng sharoitlari va mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish.

14. Hisobot yilida tayanch obyektlarni ishlab chiqarish turi bo'yicha o'xshash boshqa obyektlarga almashtirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

kuzatilayotgan tayanch korxonaning tugatilishi (bankrot bo'lishi);

korxonada kuzatilayotgan mahsulot turini ishlab chiqarishning to'xtatilishi va unga o'xshash boshqa mahsulot turini tanlab olish imkoniyatining mavjud emasligi;

ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ixtisoslashuvning o'zgarishi.

15. Kuzatuvdan chiqarilgan tayanch korxonalar boshqalariga quyidagi talablarga rioya qilgan holda almashtiriladi:

ishlab chiqarish ixtisosligi, kuzatiladigan mahsulot turlarining ro'yxati va uni realizatsiya qilish shartlarining saqlab qolinishi;

kuzatuvga yangi kiritilgan mahsulot turlari narxlarining diapazoni bo'yicha boshqa korxonalarda shakllangan o'rtacha darajadan uncha yuqori bo'lmagan holda farqlanishi;

narxlarini kuzatib borish uchun tanlab olingan korxonalar ro'yxatidagi o'zgarishlarni faqat hisobot yilining boshida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

16. Tayanch obyektlar tanlanmasini yangilash va qayta ko'rib chiqish har yili qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining sotish hajmi qiymati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

2-§. Vakil tovarlar tanlanmasini shakllantirish

17. Tovarlarining tanlanma ro'yxati Statistika agentligi tomonidan respublika darajasida markazlashtirilgan holda shakllantiriladi. Tanlanma ro'yxatni shakllantirishda bazaviy davr uchun realizatsiya qilingan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari qiymati to'g'risidagi statistika hisoboti ma'lumotlaridan foydalaniladi.

18. Kuzatuvning vakil tovarlar tanlovi hududiy statistika organlari mutaxassislari tomonidan tayanch obyekt mutaxassislari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

19. Vakil tovarlarni tanlashda umumiy sotish (realizatsiya) tarkibida ularning salmoq ulushi, imkon darajasida, ular taalluqli bo'lgan tovar guruhi yoki iqtisodiy faoliyat turidagi realizatsiyaning 50 % idan kam bo'lmashligi lozim.

20. Narxlarni kuzatish uchun vakil tovarlar to'plamiga shaxsiy ishlab chiqarishda foydalanish uchun mo'ljallangan mahsulotlari kiritilmaydi.

21. Narxlarni kuzatish uchun tanlab olingan vakil tovarlar tanlanmasi hisobot yili davomida o'zgarishsiz qoladi.

22. Oldindan tanlab olingan vakil tovarlarning narxlarini kuzatish imkoni bo'lmagan hollarda, tovar turi yoki kichik turi ichida yangi vakil tovarlarni tovarlar to'plamiga kiritishga yo'l qo'yiladi. Yangi vakil tovarlar xususiyatlari bo'yicha oldingi vakil tovarlarning tavsiflariga yaqin bo'lishi va narxlar darajasi yuzasidan juda kam darajada (5-7 foizdan baland bo'lmagan farq) farqlanishi lozim.

3-§. Narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillari

23. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlarini ro'yxatga olish quyidagi ikki asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

narxlarni ro'yxatga olish tayanch obyekt mutaxassislari tomonidan har bir oyi uchun "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlari to'g'risida savolnoma" 12 narx savolnomasi asosida amalga oshiriladi hamda ular tomonidan ma'lumotlar umumlashtirilib, statistika organlariga taqdim etiladi;

ulgurji bozorlarda narxlarni ro'yxatga olish "Ulgurji bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini ro'yxatga olish so'rovnomasi" 12 narx (qx) so'rovnomasiga asosan hududiy statistika organlari mutaxassislari tomonidan har oyda amalga oshiriladi. Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bunday to'plash usuli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy ulushi uy xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishiga asoslanadi. Uy xo'jaliklaridan ma'lumotlarni to'plashning murakkabligi sababli, xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga ko'ra, tijoratlashuvning birinchi darajasidagi (ya'ni ulgurji bozorlarda sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari) narxlar ushbu toifadagi ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish narxlariga yeng yaqin bo'lgan narxlar hisoblanishi qabul qilindi. Ulgurji bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish so'rov o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

24. Savolnoma va so'rovnoma narxlar va mahsulotning xususiyati haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, savolnomada mahsulotlarni oy davomida ishlab chiqarilganligi yoki sotilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

25. Savolnomani to'ldirishga qo'yiladigan asosiy talablar ularning tushuntirish qismida keltirilgan.

26. Dastlab, hududiy statistika organlari kuzatuv obyektlarini tanlanma to'plamga kiritilganligi va mahsulotlar narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatlari to'g'risida tayanch obyektga xabar beradi.

27. Yil boshida tanlanmaga yangidan qo'shilgan tovarlar (xizmatlar) uchun o'tgan yilning dekabr oyidagi tayanch narx qayd etilishi lozim. O'tgan yilning dekabr oyidagi narxni olish imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, o'tgan yilning dekabr oyiga yaqin bo'lgan oyidagi narx tayanch narx sifatida foydalanilishi mumkin. Ba'zi hollarda (masalan, mavsumiy mahsulotlar yoki korxona yangi yil oldi chegirmalarning qo'llanilishi) tayanch narx sifatida o'tgan yilning IV choragidagi o'rtacha narxdan foydalanish mumkin. Uchrashi mumkin bo'lgan barcha hollarda, tayanch narx qiymati to'g'risidagi qaror tayanch korxona mutaxassislari bilan birgalikda qabul qilinishi shart.

28. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar narxlarini qayd qilishning asosiy tamoyillaridan biri, bu narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarning taqqoslamaligini ta'minlashdir. Xususiyatlari aniq, batafsil bayon qilingan tovar(xizmat)lar narxlarining kuzatuvlari sifat o'zgarishlari ta'sirini hisobga olmaslik hamda faqatgina narx o'zgarishlarini aks ettirish imkonini yaratadi.

29. Hisobot davrida biror bir mahsulot turini (tur, nav, xil va h.k) iste'mol xususiyatlari bir xil bo'lgan boshqa bir mahsulot turlariga almashtirishga oldin ishlab chiqarilgan mahsulotlar turlari bo'yicha narx ma'lumotlarini olish imkoniyati mavjud bo'lmagan (ishlab chiqarishning to'xtalishi, ishlab chiqarish nomenklaturasining o'zgarishi va boshq.) hollarda yo'l qo'yiladi.

30. Hisobot yilida tarkibiy, assortiment o'zgarishlari va boshqa inflyatsiyaga bog'liq bo'lmagan omillarning ta'sirini hisobga olmagan holda narxlarning "sof" o'zgarishini aks ettirish uchun hisobot yili davomida taqqoslanadigan namuna tovarlar turlari bo'yicha ro'yxatga olish amalga oshiriladi.

31. Sotish narxlari, narxlar bir turdagi namuna tovar (xizmat) uchun ro'yxatga olingan bo'lsa, tovarlar bir xil sifat ko'rsatkichlariga va sotish kanaliga ega bo'lgandagina taqqoslanishi mumkin.

32. Narxlar belgilangan standart o'lchov birligi uchun ro'yxatga olinadi.

33. Quyidagi narxlar ro'yxatga olinmaydi:

naqd (pul) hisob-kitoblarisiz va o'zaro almashinuvda natural ko'rinishdagi rag'batlantirish uchun amalga oshiriladigan barter operatsiyalarida;

hisoblashish bo'lib to'lash orqali amalga oshiriladigan mahsulotni kreditga yetkazib berish;

o'z ishchilariga oylik maosh sifatida beradigan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga;

ertapishar sabzavotlar va mevalarning savdoga chiqqan dastlabki realizatsiyasi;

sifati buzilgan ortiqcha (qoldiq) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish;

tasodifiy (bir martalik) shartnomalarda o'rnatilgan maksimal darajada baland va demping, sun'iy ravishda tushirilgan narxlar.

34. Baliqchilik mahsulotlari bo'yicha boshqa joyda sotishga mo'ljallangan bir kilogram uchun baliq turlarining narxlari qayd etiladi. Baliq ovlash faoliyatining mavsumiyligi sababli, ovlash mavsumi yopiq bo'lgan davrda baliqchilik obyektlarining omborlarida saqlanadigan baliq filelaridan tashqari (filelarga bo'laklangan baliq) muzlatilgan baliqlarning narxlari qayd etiladi. Seleksiya uchun mayda baliqlarning narxlarini ro'yxatdan o'tkazish ming dona uchun amalga oshiriladi.

35. Namuna tovarlar narxlarining asossiz o'zgarishlarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida, statistika organlari tomonidan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha mantiqiy nazorati amalga oshiriladi hamda savollar vujudga kelgan vaqtda narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanch obyektlar mutaxassisleri bilan aniqlik kiritiladi.

36. Statistika organlari tomonidan mantiqiy nazoratni amalga oshirish uchun quyidagi taqqoslash usullari qo'llaniladi:

- o'tgan davrlar uchun narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan;
- turli tayanch obyektlardagi o'xshash namuna tovarlar orasida;

4-§. Mahsulotlar vaqtinchalik kuzatuvda mavjud bo'lmagan hollarda “shartli” narxlarni hisoblash va mavsumiy tovarlar narxlarini ro'yxatga olishning xususiyatlari

37. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish beqarorligi sharoitida ma'lum xususiyatga ega bo'lgan bir xil turdagi tovarlarning narxini uzoq vaqt davomida kuzatib borish qiyin. Bundan tashqari, ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning mavsumiy xarakteri uzoq vaqt davomida taqqoslanadigan mahsulotlarning narxlari to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligidan dalolat beradi. Shu sababli, narx indekslarini hisoblash uchun ishlab chiqariladigan tovarlar assortimenti (tur, nav, xil) almashganda sifat o'zgarishlarining ta'sirini istisno qiladigan, shuningdek, narx indekslarini hisoblash uchun vaqt qatorlarining uzluksizligini ta'minlashda hisoblangan (“shartli”) narxlardan foydalanish zaruriyati vujudga kelishi mumkin.

38. Shartli narxlarni hisoblash davomida indeks qatorlari hisob-kitoblari uzluksizligini ta'minlash maqsadida quyidagi usullardan foydalaniladi:

boshqa tayanch obyektlarda bir xil turdagi tovar (xizmat) narxi o'zgarishidan (1- ilovadagi 1- shartli misol);

vaqtinchalik kuzatuvda mavjud bo'lmagan tovar mansub bo'lgan vakil tovar, tovar guruhi bo'yicha o'rtacha narxlar o'zgarishidan (1-ilovadagi 2- shartli misol);

mos faoliyat turi bo'yicha o'rtacha narxlar o'zgarishidan (1-ilovadagi 3- shartli misol);

o'tgan davrdagi mavjud oxirgi kuzatilgan narxni ko'chirib qo'yish. Ushbu usul faqatgina davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlarga, agarda hisobot davrida tasdiqlangan narxnomalarda o'zgarishlar kuzatilmaganligi ma'lum bo'lsagina qo'llanilishi mumkin.

39. “Shartli” narxni hisoblashning muayyan usulini tanlash mavjud ma'lumotlar bazasini tahlil qilish asosida va zarur hollarda tayanch korxona mutaxassislarini jalb qilgan holda (masalan, tovar (xizmat)ni ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishini baholash usulidan foydalanganda) amalga oshiriladi.

40. Mavsumiy tovarlarni ishlab chiqarish to'xtatilgan davrlarda obyektlar odatda, savolnomada ularning narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirmaydilar. Biroq, ushbu turdagi tovarlarni ishlab chiqarish vaqtinchalik to'xtatilgan davrda ularni yuklash (sotish) davom etishi mumkin. Ushbu holatlarda obyektlar savolnomada yuklab jo'natilgan tovarlarning narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim. Boshqa holatlarda, "shartli" narxlarni hisoblash usullaridan biri qo'llaniladi.

5-§. Tovar (xizmat)lar sifati o'zgarganda narxlarni ro'yxatga olish

41. QXNIni shakllantirishdagi muhim shartlardan biri bu – ko'rsatkichda faqatgina narxlar o'zgarishi (inflyatsion omil)ni aks ettirish va tovarning sifat tavsiflari o'zgarishi kabi ta'sir omillarini istisno etishdir. Xususiyatlari aniq, batafsil keltirilgan tovarlar narxlari kuzatuv sifat o'zgarishlari ta'sirini istisno etish va faqatgina narx o'zgarishini aks ettirish imkonini beradi.

42. Tayanch obyektlarda narxlarni ro'yxatga olayotganda o'tgan davrda narxlari ro'yxatga olingan, sifat jihatidan o'xshash tovar (xizmat) narxlarini qayd etish imkoni bo'lmagan hollarda sof narx o'zgarishini aniqlash uchun qayd etilgan ma'lumotlarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

43. Sifat jihatidan narxlarni to'g'rilashda quyidagi ikki toifadagi usullardan foydalaniladi:

noaniq yoki bilvosita ("implitsit") to'g'rilash;

aniq yoki bevosita ("eksplitsit") to'g'rilash.

44. Noaniq ko'rinishdagi to'g'rilashlar uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

"Birlashtirish" usuli, agar eski va yangi tovar narxlarini parallel tarzda ro'yxatga olish imkoniyati bo'lsa qo'llaniladi. "Birlashtirish" usuli taklifga asoslangan bo'lib, ma'lum sifat tavsiflariga ega kuzatuvda mavjud bo'lmagan tovar bilan uni almashtiruvchi tovar narxlari o'rtasidagi yagona farq, ularning sifatidagi farqlar bilan bog'liq. Buning uchun tanlanmada o'rin almashtirishdan foydalaniladi. Mahsulotlarning eski tanlanmasi o'tgan davr uchun ($t-1$) undan oldingi davrga nisbatan ($t-2$) ushbu mahsulot toifasi bo'yicha narx indeksini hisoblashda foydalanilsa, yangi tanlanmadan hisobot davrida (t) o'tgan davrga ($t-1$) nisbatan narx indeksini hisoblash uchun foydalaniladi (1-ilovadagi 4- shartli misol).

"Narxlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash" usulidan istisno hollarda **sifat jihatidan uncha katta farq qilmaydigan** mahsulotlar uchun hamda boshqa o'zgartirish kiritish usullaridan foydalanish uchun qo'shimcha ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda foydalaniladi. "Narxlarni to'g'ridan-

to'g'ri taqqoslash" usuli yaxshilangan sifatga ega yangi mahsulot narxini oldin ro'yxatga olingan mahsulot narxi bilan taqqoslashni nazarda tutadi. Ushbu usulni faqatgina vakil tovar (xizmat) to'liq tavsifga ega bo'lgan hollardagina qo'llash mumkin. Almashayotgan turlarning kichik sifat o'zgarishlarini doimiy inkor etish hisobiga narxlar indeksining tizimli ravishda ko'tarilib borishi ushbu usulning kamchiligi hisoblanadi (1-ildovadagi 5- shartli misol).

“Umumiy o'rtachani shartli hisoblash” usuli “birlashtirish” usulini qo'llash imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, sifat jihatidan katta farq qiladigan hamda ishlab chiqarishdan olib tashlangan mahsulotlar uchun “shartli” narxlarni qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu usul guruh ichidagi boshqa, o'xshash mahsulot turining yoki boshqa tayanch korxonadagi o'xshash mahsulotning narx o'zgarishlari asosida “shartli” narx hisoblashni nazarda tutadi (1-ildovadagi 2- shartli misol).

6-§. Yig'ma narxlar indekslarini hisoblash uchun ko'rsatkichlarni o'lchash tizimini shakllantirish

45. Tabiiy-iqlim sharoitlari, bankrotlik, tayanch obyektlar ixtisoslashuvining o'zgarishi va boshqa omillar bilan bog'liq holda hosilning kam bo'lishi sababli mahsulot ishlab chiqarish va sotish tarkibidagi tebranishlarni yo'qotish maqsadida, vaznlar tizimini shakllantirish uchun so'nggi uch yillik qiymat to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Vaznlarni shakllantirish uchun o'rtacha arifmetik qiymat formulasi asosida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati to'g'risidagi so'nggi uch yillik ma'lumotlardan o'rtacha yillik ko'rsatkich hisoblanadi.

O'lchash tizimlarini shakllantirish Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 3- ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

46. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi faqatgina narxlar o'zgarishini aks ettirishi uchun vaznlar tizimi bir yildan kam bo'lmagan muddatga o'zgarmas bo'lib qoladi.

47. Har yili, yangi hisobot yiliga o'tishdan oldin, ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining o'rtacha qiymati hisob-kitoblardan eng oldingi yil qiymatining olib tashlanishi va oxirgi yilning qiymatlarini qo'shish orqali yangilanadi.

48. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlari indeksini hisoblashda foydalaniladigan vaznlar tizimi narxlar kuzatuviga kiritilgan va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida o'zining muhimligini aks ettirgan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

umumdavlat tasniflagichi (IFUT 2- tahrir)ga muvofiq sinflar, guruhlar va bo'limlarga taqsimlangan qiymat kattaliklari salmoq ulushlarining to'plamini namoyon etadi.

49. O'lchash tizimlarini shakllantirishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati to'g'risidagi yillik statistik hisobotlari ma'lumotlari asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning qiymat hajmlari bo'yicha yig'ma ma'lumotlarni ishlab chiqish davrini hisobga olgan holda tayanch davrning joriy davrdan kechikishi 2 yilni tashkil etadi.

50. QXNIning o'lchash tizimini shakllantirish maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

a) dastlabki bosqichda ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST) va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir)ning iyerarxik tuzilmasiga muvofiq, tayanch obyektlar, kichik sinflar, sinflar, guruhlar, bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi.

b) ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi to'g'risidagi uch yillik ma'lumotlar asosida iyerarxik tuzilmaga muvofiq, har bir pozitsiya uchun salmoq vazn (ulush)larni shakllantirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha yillik hajmi hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir umumlashtirish (agregatlash) darajalarida quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

$$\sum W_{0i} = 1; \quad \sum W_{0j} = 1; \quad \sum W_{0k} = 1, \quad \sum W_{0g} = 1, \quad \sum W_{0r} = 1,$$

bu yerda,

W_0 – bazaviy salmoq vaznlar

i – tayanch obyekt bo'yicha kichik sinflarga taalluqli tovar pozitsiyalari

j – sinflarga taalluqli kichik sinflar

k – guruhlarga taalluqli sinflar

g – bo'limlarga taalluqli guruhlar

r – seksiyaga taalluqli bo'limlar

v) keyingi bosqichda, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqarishning o'rtacha yillik tuzilmasidan o'tgan yilning dekabr oyidagi narxlarda shu kabi tuzilmaga o'tkazish bilan bog'lash (muvofiqlashtirish) amalga oshiriladi. Ushbu bog'lash, vazn ko'rsatkichlari shakllantirilayotgan yil bo'yicha yillik o'rtacha narxlar indeksining o'tgan yilning dekabr oyidagi

narxlar indeksiga nisbati bilan aniqlanadigan tuzatish koeffitsiyentlari yordamida amalga oshiriladi. O'rtacha narxlar indeksi tayanch yil oylarining o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan narxlar indeksleri o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi. Salmoq vaznlarning yangi aniqlangan qiymatlari har bir iyerarxik darajada kirish komponentlari uchun vaznlar yig'indisi 1 ga teng bo'lishi uchun normallashtiriladi. Natijada, aniqlangan qiymatlardan narxlar indekslarini hisoblashda salmoq vaznlar sifatida foydalaniladi.

51. Indeks faqat narx o'zgarishini aks ettirishi uchun, o'lchash tizimi muayyan bir davr (bir yildan kam bo'lmagan) mobaynida o'zgarishsiz qoldiriladi.

7-§. Narxlar indeksini hisoblash va ularning o'rtacha oylik kattaliklarini aniqlash

52. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini hisoblash tayanch obyektlardan va ulgurji bozorlardan kuzatilgan narxlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Kuzatilayotgan mahsulotning har bir turi bo'yicha hisobot davri uchun o'rtacha narx va keyinchalik yuqori darajadagi guruhlariga umumlashtiriladigan oldingi davrga nisbatan narx o'zgarishlarining (narx indeks) nisbiy kattaligi hisoblanib aniqlanadi.

53. Mahsulotning o'rtacha narxi muayyan pozitsiya uchun barcha ro'yxatdan o'tgan narxlarning geometrik o'rtacha sifatida hisoblanadi. Bu holda, formula qo'llaniladi:

$$\bar{P}_{i(t)} = \sqrt[n]{\prod_{i=1}^n P_{i(t)}},$$

bunda

$\bar{P}_{i(t)}$ – tovar (xizmat) pozitsiyasi bo'yicha joriy oy (t) uchun o'rtacha narx

$P_{i(t)}$ – joriy oy (t) uchun tayanch obyektida ro'yxatga olingan mahsulot narxi (i)

n – mazkur tovar (xizmat) pozitsiyasi bo'yicha kuzatuvga kiritilgan tayanch obyektlarda qayd etilgan narxlar soni

54. Qisqa davrli narxlar indeksi alohida tovar turlari uchun hisoblanadi va o'zi bilan birga aniq (ma'lum) tovar turlarining joriy oydagi narxlarini o'tgan oydagi narxlarga nisbatini ifodalaydi:

$$STR_{i(t)} = \frac{P_{i(t)}}{P_{i(t-1)}},$$

bunda

$STR_{i(t)}$ – hisobot (t) oyidagi (i) tovar turining qisqa davrli narx indeksini o'tgan oyga (t-1) nisbati;

$P_{i(t)}$ – tovar (i) turining joriy (t) oyidagi narxi;

$P_{i(t-1)}$ – tovar (i) turining o'tgan (t-1) oyidagi narxi.

55. O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq davrli individual narx indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$LTR 2_{i(t)} = \prod_{m=1}^t STR_{i(m)}$$

bunda

$LTR 2_{i(t)}$ – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan tovarning (i) joriy (t) oyidagi uzoq davrli narx indeksi;

m – oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

56. Narx indekslari asosida hisoblangan tovar turlaridan umumlashgan narx indekslari hisoblanadi.

57. QXNI respublika darajasida turli darajadagi umumlashgan guruhlar bo'yicha (vakil tovarlar bo'yicha, quyi sinflar, sinflar, guruhlar, bo'limlar va jami qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha) Statistika agentligi tomonidan hisoblanadi.

58. QXNI umumlashgan narx indeksini hisoblashda ikki xil statistik ma'lumotdan foydalaniladi:

a) tayanch yil salmog'i (vazn) tuzilishi;

b) kuzatilayotgan mahsulot turlarining individual narx indekslari.

59. Birlamchi narx ma'lumotlarini olish xususiyatlarini hisobga olgan holda, QXNini shakllantirish har chorak oxirida chorakning har oyi uchun narx indekslarini o'tgan davrni hisobga olgan holda hisoblash bilan amalga oshiriladi.

60. Umumlashgan narx indekslarini hisoblash uchun modifikatsiyalangan Laspeyres formulasidan foydalaniladi.

Shu bilan birga:

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan **qisqa muddatli indekslar** va o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan **uzoq muddatli indekslar** ko'rsatkichlari bir-biriga mos keladi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$STR_{j(yan.)} = LTR 2_{j(yan.)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(yan.)} \times W_{0i}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}} \quad \text{– kichik sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{k(yan.)} = LTR 2_{k(yan.)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(yan.)} \times W_{0j}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}} \quad \text{– sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(yan.)} = LTR\ 2_{g(yan.)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(yan.)} \times W_{0k}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}} - \text{guruhlar bo'yicha,}$$

